

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

ISSN: 2181-4163

IMPACT FACTOR: 8.2

The international scientific journal "Interpretation and researches" publishes the results of scientific research conducted by school teachers, university students, professors and teachers, and independent researchers in the form of scientific articles. This journal is indexed in authoritative databases and published in electronic form.

The international scientific journal has certificate No. 054841 of the Agency for the Development of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. The journal accepts articles in the following areas: 1. Exact sciences 2. Natural sciences 3. Engineering sciences 4. Pedagogical sciences 5. Social and human sciences 6. Medical sciences. Note for authors of articles: articles are accepted in Uzbek, Russian, English, Karakalpak.

INTERPRETATION AND RESEARCHES

GOOGLE SCHOLAR ZENODO CYBERLENINKA OPEN AIRE

interpretationandresearches.uz



№6(52)
30.04.2025





International scientific journal
“INTERPRETATION AND RESEARCHES”

volume 1 issue 6(52)
30. 04. 2025



interpretationandresearches.uz



International scientific
journal
“Interpretation and
researches”

Bosh muharrir:
R.I.Abdullayev

Bosh muharrir o'rinbosari:
N.I.Xolmatova

Texnik muharrir:
X.D.Halimboyev

Jurnal O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiya agentligi
tomonidan
2022- yil 22-dekabr sanasida
№054841 raqam bilan davlat
ro'yxatidan o'tkazilgan

ISSN 2181 - 4163

Jurnaldan maqola ko'chirib
bosilganda, manba
ko'rsatilishi shart.

Aloqa uchun:

Telefon: +99891-152-93-14

E pochta: talqin@bk.ru

interpretationandresearches.uz

Tahrir hay'ati a'zolari (O'zbekiston)

Masharipova Gularam Kamilovna

Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Hojiyev Sanjar Samadovich

Buxoro davlat universiteti “Agonomiya va
tuproqshunoslik” kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna

Falsafa fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Navruzova Gulchixra Nigmatovna

Falsafa fanlari doktori, professor
Buxoro muxandislik-texnologiya instituti

Djumaniyazova Feruza Djumanazarovna

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'zR FA Sharqshunoslik instituti

Akbarov Qobuljon

Qo'qon DPI, Tarix fanlari nomzodi

Bazarov Otabek Odilovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Farg'ona politexnika instituti

Akramov Shukurjon To'xtasinovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Xasanov Akbarjon Abdurashidovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Yakubov Ilham Yuldashevich

Kimyo fanlari nomzodi

FarDU Kimyo kafedrasida dotsent

Maxmudova Nilufarxon

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Rahmatullayeva Dilafro'zxon

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Eshquvvatov Ulug'bek Abdulla o'g'li

Termiz muhandislik – texnologiya instituti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Azimov Zikrjon Muhammadovich

Farg'ona davlat universiteti tuproqshunoslik kafedrasida

katta o'qituvchisi b.f.f.d., (PhD)

Madrahimov Ilhomjon Sobirovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti

o'zbek tili kafedrasida dotsent

Vaisova Moxira Davlatboevna

Urganch davlat universiteti matematik

tahlil kafedrasida dotsent

Nazarov Mustaqim Rashidovich

Buxoro davlat universiteti Pedagogika
instituti Aniq fanlar kafedrasida, dotsent

Nazarova Nargiza Mustaqimovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ahmedova Dilfuza Maxammadovna

Farg'ona davlat universiteti ekologiya
kafedrasida dotsent

Qo'ldashev Sherali Temiraliyevich

O'zRFA Sharqshunoslik instituti

tarix fanlari doktori, dotsent

Tishabayeva Irodaxon Rasulovna

Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Farg'ona filiali “O'zbek tili va

gumanitar fanlar” kafedrasida katta

o'qituvchisi

Rahmonov G'afforjon Ro'zmatovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek

tilshunosligi kafedrasida dotsent

Sharipova Lobar Akramovna

Jizzax shahridagi Qozon federal universiteti

filiali “Tibbiyot” kafedrasida dotsent v.b.

(Xorijiy davlatlar)

Abdukurimov Jamoliddin

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Xo'jand davlat universiteti

Tojikiston

Muxtorov Kiromuddin Tochievich

Huquqshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Xo'jand davlat universiteti

Tojikiston

Hamdamov Sherali Jumabekovich

Matematika-fizika fanlari nomzod

Xo'jand davlat universiteti

Tojikiston

G'ufonov Dodaxon Najmidinovich

Geografiya fanlari nomzodi

Xo'jand davlat universiteti

Tojikiston

Bahriev Fayzullojon Faxriddinovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent,

Xo'jand davlat universiteti, Tojikiston

Fuat Serkan Say

Phd, Mersin Universiteti Turkiya

Tuba Tombuloglu

Phd, Mersin Universiteti Turkiya

Hayrettin İhsan Erkoç

Chanakkale Onsekiz Mart Universiteti

Turkiya

Abdul Khalil Ahmadoughli

Baxl Universiteti Til Va Adabiyot Fakulteti

O'zbek Tili va Adabiyoti dotsenti,

Avg'oniston

YOSH FUTBOLCHILARNI O‘YIN MASHQLARI ASOSIDA TEXNIK-TAKTIK JIHATDAN TAYYORLASH

Sattarov Ashraf Eshaliyevich

Qarshi davlat texnika universiteti o‘qituvchisi

sattarov.ashraf76@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada futbolda sport zaxirasini tayyorlash muammosi ko‘rib chiqilib yosh futbolchilarni tayyorlashda texnik-taktik tayyorgarlik jihatdan muhim ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Tadqiqotning asosiy mazmuni mashg‘ulot jarayonida yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini o‘yin mashqlarini to‘plamlari asosida rivojlantirishga qaratilgan.

Калит so‘zlar: futbol, texnik usullar, to‘pni uzatish, to‘pga zarba berish, to‘pni egallash, fintlar, o‘yin texnikasi, harakatlanish qobiliyati, o‘yin mashqlari.

ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ НА ОСНОВЕ ИГРОВОЙ ПРАКТИКИ

Саттаров Ашраф Эшалиевич

Преподаватель Каршинского государственного технического университета

Аннотация: В статье рассматривается проблема подготовки спортивного резерва в футболе, а также обсуждается важная роль технико-тактической подготовки в подготовке молодых футболистов. Основное содержание исследования направлено на совершенствование технико-тактической подготовки юных футболистов в процессе тренировок на основе комплексов игровых упражнений.

Ключевые слова: футбол, технические приемы, передачи мяча, удары по мячу ногами, владение мячом, финты, техника игры, двигательные навыки, игровые упражнения.

TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS BASED ON GAME PRACTICE

Sattarov Ashraf Eshaliyevich

Teacher at Karshi State Technical University

Abstract: The article examines the problem of training a sports reserve in football, and discusses the important role of technical and tactical training in the

training of young football players. The main content of the study is aimed at improving the technical and tactical training of young football players in the process of training based on sets of game exercises.

Key words: football, technical techniques, passing the ball, kicking the ball, ball control, feints, game technique, motor skills, game exercises.

Ilmiy-metodik adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda aniq zarbalar va to‘p oshirishlarning turli jihatlarini modellashtiruvchi o‘yin mashqlarini qo‘llash orqali futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligi samaradorligini oshirish, zarur masalalardan biri hisoblanadi. O‘quv adabiyotlarda tavsiya etilgan mashqlar va ularni mashg‘ulotlarning turli bosqichlarida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar tahlili, futbolchilar o‘zlashtirgandan so‘ng, texnik va taktik imkoniyatlari doirasida aniq optimal xatti-harakatni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishga to‘liq ishonch hosil qilmaydi. Shu bois mashg‘ulot jarayonida yosh futbolchilarni texnik jihatdan tayyorlash uchun maqsadli vositalar va usullarni to‘g‘ri tanlash orqali imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Keyingi yillar ilmiy adabiyotlarda yosh futbolchilarni tayyorlash texnikasi, taktikasi va metodikasi bo‘yicha ko‘plab uslubiy tavsiyalar e‘lon qilinmoqda. Aksariyat ilmiy ishlarda o‘quv-mashg‘ulot jarayonini o‘tkazihda ilg‘or amaliy tajribali murabbilar uslublari ko‘rsatilgan. Lekin bu tavsiyalar ko‘proq yosh futbolchilarga emas, balki yuqori malakalilarga taalluqlidir.

Ishdan ko‘zlangan maqsad o‘yin mashqlar to‘plamlarini mashg‘ulot jarayonida qo‘llash samaradorligini asoslashdan iborat. O‘yinchilarning texnik tayyorgarligini o‘rganish, harakatlanish, koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish, bo‘yicha usullarini muvaffaqiyatli ishlab chiqqan professor N.A. Bernshteynning ilmiy ishlari muhim rol o‘ynadi. Uning ishlari sportchilarni zamonaviy sportga tayyorlash uchun juda muhimdir.

V.V.Lobanovskiyning ta’kidlashicha, yosh futbolchilarni tayyorlashda umumiy jismoniy, balki texnik-taktik tayyorgarlikka ham e’tibor berish kerak, chunki u o‘yinning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Boshqa muallif K.I. Adambekov futbolchilar tayyorlash jarayonini o‘rganar ekan, unda sport mahoratini oshirishga ko‘maklashuvchi maydon o‘yinchisi texnikasi va darvozabon tomonidan to‘pni boshqarish texnikasi ko‘rib chiqilgan. Uning fikricha, texnik tayyorgarlikda maqsadga muvofiq bo‘lgan vositalar va usullardan foydalangan holda yosh futbolchilarning texnik mahorati sifatini yanada oshirish muammosini hal qilishga yordam beradi [1].

M.A. Godik, A.I. Shamardin, I.Xalil kabi ilmiy tadqiqotchilar yosh futbolchilarning jamoaviy, guruh va yakka tartibdagi harakatlarini o‘rganib kelishmoqda. Ular o‘z ishlarida futbolchining yosh xususiyatlariga oid rivojlanish qonuniyatlari va jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda

tayyorgarlikning turli bosqichlarida mashg‘ulot o‘tkazish zarurligini alohida ta’kidlashadi. Mashg‘ulot jarayoni va musobaqa faoliyatida texnikaning xilma-xilligi va o‘yin taktikasidan kelib chiqib jismoniy yuklamalardan foydalanishni tartibga solishda yordam beradi [2].

Yosh futbolchilar turli xil texnik usullarga ega bo‘lishlari bilan birgalikda o‘yin mashqlari va ularning turlaridan foydalanib, boshqa mashqlar bilan birgalikda o‘yin usullari va ularning xususiyatlarini baholash mezonlarini ko‘rib chiqamiz (1-jadval).

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatishga asos bo‘ladiki, futbolchilarni tayyorlash jarayonida jismoniy, texnik, taktik, irodaviylik kabi sifatlarga alohida e’tibor berish zarur ekanligi ta’kidlangan.

1-jadval

Mezonlar	Ularning tavsiflari
1. O‘yin davomida o‘yinchi tomonidan qo‘llaniladigan usullar soni.	O‘yin davomida har bir o‘yinchining o‘yin vaziyatida turli xil usullaridan oqilona foydalana olishi.
2. Har qanday vaziyatdan qat’iy nazar, qo‘llaniladigan usullarning barqarorligi va ishonchligi.	Uchrashuvning keskinligi, o‘yin maqomi, raqiblarning faol qarshiligi, muxlislarning munosabati, yomon ob-havo, futbolchining texnik ko‘nikmalarga egaligi, psixologik bosimga tayyorligi.
3. O‘yinda qo‘llaniladigan usullarning samaradorligi va maqsadga muvofiqligi.	O‘yin sharoitiga, ayni vaziyatdagi raqiblar soniga, ko‘nikmalarga bog‘liq aldamchi harakatlari va ushbu holat uchun o‘yinchilarning texnik usullar zaxirasi (zarba, harakatlanish, to‘pni to‘xtatish turlari va boshqalar).
4. Yengillik, qulaylik va oqilona tezlik bilan o‘yinda usullarni bajarilishi.	O‘yinda usullarni bajarish. Jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalashga, harakat reaksiyasining tezligiga bog‘liqligi, yakka harakatning tezligi, malaka, ko‘nikmalarni avtomatlashtirish.

O‘yinda qo‘llanadigan ma’lum miqdordagi usullarni bajarish, uning alohida uslubi va bajarish qobiliyati ham, o‘yinchining texnik mahorati bilan birgalikda tavsiflanadi. O‘yinining muhim jihati shundaki, futbolchilar o‘yin vaziyatida (to‘pni egallash, to‘pni to‘xtatish va uzatish, harakatlanish, fintlar, to‘pga zarba berish) texnik usullarni qo‘llay olishidir. Chunki bir vaqtning o‘zida raqibga faol qarshilik ko‘rsatish ham talab etiladi.

Pedagogik eksperiment 2024-2025 yillar davomida Qashqadaryo viloyat futbol maktabining 12-13 yoshli futbolchilar guruhida, ishlab chiqilgan o‘yin mashqlari to‘plamlarini mashg‘ulot jarayonida qo‘llab, bu orqali erishilgan samaradorlikni tahlil

qilish maqsadida o‘tkazildi. Belgilangan vazifalarni hal etish uchun tajriba va nazorat guruhlarini tuzildi. Qo‘llaniladigan uslublar asosini texnik elementlarni to‘g‘ri bajarishga o‘rgatish bilan bir qatorda maxsus, o‘yin mashqlar to‘plamidan foydalanildi. Jami 10 ta to‘plam ishlab chiqilgan bo‘lib, har bir to‘plamda 15 ta topshiriq mavjud. Barcha o‘yin topshiriqlari o‘yinchilarning harakatlanish qobiliyatlarida mujassam bo‘lgan kuch, tezlik-kuch hamda texnik elementlari asosida qurilgan.

Ushbu o‘yin mashqlar to‘plamlari mashg‘ulot vazifasiga muvofiq ma‘lum bir ketma-ketlikda qo‘llanilgan, o‘yin topshiriqlarini bajarish va shug‘ullanuvchilarning jismoniy yuklamasi intensivligi va hajmi bilan chambarchas bog‘liqdir [3].

Yosh o‘yinchilarda harakat ko‘nikmalarini shakllantirish turlicha kechadi. Ba‘zilarda bur usulni tezda o‘zlashtirsa, boshqalarida esa bu jarayon sekin nomoyon bo‘ladi. Bu jismoniy qobiliyatlar va ularning rivojlanishiga bog‘liq. Shu bois, o‘yinlarida o‘ziga xos jismoniy, psixologik, texnik-taktik tayyorgarlikka ega bo‘lgan, individuallikda yetakchi rol o‘ynaydigan o‘yinchilarni tanlash zarur. Ular o‘yin jarayonida texnik usullarni ijodiy qo‘llash, taktik vazifalarni hal etish va o‘z jamoasining etakchisi bo‘lish qobiliyatiga egadirlar [4,5,6].

Quyida biz muayyan ketma-ketlikda o‘yin mashqlar to‘plami topshiriqlarni hamda har bir mashg‘ulot jarayonini murakkablashtirish, yuklamalarni rejali taqsimlash, jismoniy yuklamaning intensivligi va hajmi, har bir mashg‘ulotda harakat tezligi va tezligi bilan o‘yin topshiriqlarini bajarishga qaratamiz. Misol uchun bir mashg‘ulotda, to‘pga kuchli zarba berish bo‘lsa ikkinchisida harakatdagi to‘pni nishonga aniq zarba, boshqasida esa bayroqlar orasidan o‘tib zarba berish kabilardir.

2-jadval

Mashqlar to‘plami

Usullar	Mashqlarni bajarish/juftlikda, uchlikda, guruhlarda
To‘pni nishonga sekin zarba bilan yo‘llash	Mashq juftlikda bajariladi. Har bir o‘yinchi harakatsiz to‘pni devorga 3-4 m masofada turib yugurmasdan nishonga 20 ta aniq zarba beradi. Futbolchilarning vazifasi oyoqning to‘pga tegish joyini sezish va aniq zarba yo‘llash. Natija nishonga tekkan zarbalar soni bo‘yicha aniqlanadi.
Nishonga aniq zarba yo‘llash	Mashq uchlikda bajarilib, har bir o‘yinchini nishonga aniq zarba beradi. Devorda vertikal holarda 1x1 kvadrat tasvirlangan. O‘yinchi ushbu nishonga 10 m masofadan 20 ta zarba berishi kerak. Zarbalar harakatsiz to‘pda amalga oshiriladi. Natija nishonga tekkan zarbalar soni bo‘yicha aniqlanadi.
Bayroqlar orasidan o‘tib darvozaga zarba	O‘yinchilar juft-juft holatda bo‘linadi. Juftliklar orasidagi masofa 25 m. O‘rtadagi masofada ustunlardan 1,5 - 2 m kenglikdagi darvozalar o‘rnatiladi. Sheriklar to‘pni navbatma-

yo'llash	navbat bir-biriga yo'naltiradilar, to'p avval bayroqlar orasidan olib o'tilib, so'ngra ustunlardan iborat bo'lgan darvozadan o'tishi kerak. Har bir o'yinchining vazifasi to'pni boshqarishda kamroq xatolarga yo'l qo'yishdir. Natija soniyalarda zarbalar miqdori bo'yicha baholanadi.
Harakatdagi to'pni darvozaga yo'llash	O'yinchilar juftlikka bo'linadi. Sheriklardan biri yon tomondan uzatmani bajaradi, ikkinchisi esa harakatdagi to'pga yugurib kelib nishonga (darvoza, devordagi nishon) zarba yo'llaydi. Har ikki oyoqda 10 tadan zarba bajarilgandan so'ng, o'yinchi sherigi bilan vazifani almashtiradi. Natija aniq zarbalar soni bo'yicha baholanadi.
Yo'lak bo'ylab uzoq masofadan zarba yo'llash	Maydonda kengligi 20 metr bo'lgan yo'lak belgilanadi. O'yinchilar ketma-ket 3 ta urinishdan to'pga yuqoridan zarba berishadi. To'pni yo'lak bo'ylab uzoqroq masofaga yo'llaganlar g'olib hisoblanishadi.
Doira bo'ylab to'p uzatish	Maydonda diametri 20 metr bo'lgan doira chiziladi. O'yinchilardan biri doira ichida joylashadi. Qolganlari doira chizig'i bo'ylab bir-biridan bir xil masofada joylashadilar. Doira ichida turgan o'yinchi navbatma-navbat qatnashchilarning har biriga murabbiy ko'rsatgan usulda to'pni yo'naltiradi. O'yinchi to'pni ham ko'rsatilgan usulda qabul qilishi va uzatishi kerak.
To'pni uzatish va joyni o'zgartirish	O'yinchilar (6 kishi) doira bo'yicha joylashadi. O'yinchilardan biri signal bo'yicha sheriklaridan biriga to'pni (murabbiy ko'rsatgan usulda) uzatadi va uning o'rnini egallaydi. Mashq shu tarzda davom ettiriladi.
To'pni har xil usulda va harakatda uzatish	O'yinchilar doira bo'ylab harakatlanayotganda to'pni bir yoki ikkita teginishda avval bir tomonga, so'ngra ikkinchi tomonga uzatadilar. Xuddi shunday ikki qator bo'lib ham bajaradilar.
Sherigiga to'pni chiziq bo'ylab uzatish	Ikki o'yinchi bir-biridan 10 metr masofada turadi. Signal bo'yicha to'p bilan harakatni boshlashadi, so'ngra bir vaqtning o'zida bir-birlariga oyoqning ichki tomoni bilan uzatiladi. Harakatdagi to'pni to'xtatib yana mashqni qaytadan boshlashadi. Uzatishda to'plar to'qnashib ketmasligi kerak.
Harakatdagi to'pni sherigiga uzatish.	Maydon o'rtasida ikki o'yinchi joylashadi. O'yinchilardan biri sherigiga yon holatda turib, oyog'ining ichki tomoni bilan unga to'pni yo'naltiradi. Sherigi esa yugurgan holda harakatdagi to'pni uzatgan sherigiga qaytaradi. Futbolchilar to'pni bir-biriga uzatib, maydon oxirigacha oldinga siljishadi. Keyingi juftlikdagi o'yinchilar ham mashqni shu tarzda davom ettirishadi. Natija soniyalarda baholanadi.

<p>Darvoza to‘g‘risidan zarba yo‘llash</p>	<p>Bir vaqtning o‘zida ikkita darvozaga zarba beriladi. O‘yinchilar ikkita jamoaga bo‘linadi va har bir o‘yinchi darvoza yo‘nalishi bo‘ylab yugurib zarba yo‘llashadi. O‘yinchilar mashqni 10 martadan bajaradi.</p>
<p>To‘pni to‘xtatish va zarba yo‘llash</p>	<p>Devordan 5 metr uzoqlikda turib, to‘p pastdan yo‘naltiriladi, shunda devordan sakrab, qaytgan to‘pni to‘xtatib (har qanday usulda), yana uni devorga qayta zarba beriladi. Bir vaqtda mashqni ikkita jamoa bajaradi.</p>
<p>Qabul qilish, uzatish va to‘xtatish</p>	<p>O‘yinchilar juft-juft bo‘linib 8 - 10 metr masofada bir-biriga qarama-qarshi turadilar. To‘pni uzatish va to‘xtatishning turli usullari, murabbiy topshirig‘iga ko‘ra amalga oshiradi.</p>
<p>To‘pni doira bo‘ylab uzatish va qabul qilish</p>	<p>O‘yinchilar diametri 12 metr bo‘lgan doira bo‘ylab joylashadilar. O‘yinchilardan biri doira markaziga joylashadi va navbati bilan aylana bo‘yicha sheriklariga to‘p uzatishni boshlaydi. To‘pni qabul qilib olgan o‘yinchi uni to‘xtatadi va doira bo‘yicha sherigiga, sherigi esa yana markazdagi o‘yinchiga qaytarib beradi. Futbolchilar to‘pni to‘xtatish va uzatish ko‘nikmalarini mustahkamlashadi.</p>
<p>To‘p doira tashqarisidan doiraga ichiga.</p>	<p>O‘yinchilar ikki qatorga bo‘linadi. Har bir qator oldida diametri 2 m bo‘lgan doira chiziladi. Jamoalarning birinchi qatordagilari to‘p bilan doira ichida turishadi. Signal bo‘yicha ular to‘pni o‘z qatoridagi sherigiga yo‘naltiradi. Ular to‘pni to‘xtatib, yana doirada turgan sherigiga yo‘naltirib, o‘zlari esa qator oxiriga yuguradilar. Jamoalardagi har bir o‘yinchi uchta uzatmani bajargandan so‘ng o‘yin tugaydi. G‘alaba tezroq topshiriqni bajargan jamoaga beriladi. Qatorlar va aylanagacha bo‘lgan masofa 6-7 m tashkil etadi.</p>
<p>To‘pni egallash.</p>	<p>Mashqlar juftlikda bajariladi.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Bir o‘yinchi to‘p bilan oldinga harakatlanib, kutilmaganda 7 marotaba o‘ngga (chapga) tashlanishlarni bajaradi. Raqib u tomon harakat qiladi va to‘pni olib qo‘yishi kerak. 2. O‘yinchi to‘p bilan harakatni boshlaydi va tez yugurishdan so‘ng keskin to‘xtab, yo‘nalishni boshqa tomonga o‘zgartiradi. Raqib to‘pni olib qo‘yishi kerak. 3. To‘pni fishkalar orasidan olib yurish, raqib unga etib olishi va to‘pni egallashi kerak. 4. To‘p bilan yugurish, to‘xtash, burilish va oldinga, o‘ng, chap tomonlarga harakatlanish, raqib unga etib olishi va to‘pni egallashi kerak.

Tajribaning boshida va oxirida futbolchilarning texnik tayyorgarligini aniqlash uchun nazorat testlari tashkil etildi. Olingan eksperimental ma'lumotlarga ko'ra, tajriba guruhidagi futbolchilarning mashq bajarishdagi ko'rsatkichlarning o'sish intensivligi nazorat guruhiga qaraganda ancha yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi. Tajriba guruhida eng yaxshi natijalar 1-test (to'p uzatish) mashqlarida kuzatildi, bunda o'rtacha o'sish 62,5% ni tashkil etdi. Bu test o'yinda asosiy texnik usul bo'lganligi sababli, unda eng yuqori o'sish kuzatildi.

2-test (to'p bilan harakatlanish) da yakuniy natijalar yuqori bo'lmadi. O'sish atigi 2,7% ni tashkil etdi. Ko'rsatkichning yuqori bo'lmaganligining sababi sifatida ushbu texnik usullarning murakkabligi va uni takomillashtirish uchun ko'proq vaqt talab etilishidir. Uchinchi testda (to'pni egallash) 37,9%, oxirgi testda esa (darvozaga zarba berish) 29,1% o'sish ko'rsatkichini qayd etildi.

Sinov yakunida nazorat guruhida test natijalari quyidagicha ko'rinishda bo'ldi. Birinchi test bo'yicha o'sish (to'pni uzatish) 45 foizni, ikkinchi test bo'yicha o'sish (to'p bilan harakatlanish)da ko'rsatkich 2,3 foizni tashkil etdi. Uchinchi testda (to'pni egallash) esa eng yuqori natijani qayd etdi va 21,6 foizni tashkil etdi, to'rtinchi testda (darvozaga zarba berish) nazorat guruhi futbolchilari natijalarni 16,7 foizga oshirdi.

Natijalarni solishtirganda, barcha ko'rsatkichlar bo'yicha tajriba guruhida yuqori ko'rsatkich bo'lganini ta'kidlash mumkin. Masalan, tajriba guruhida 1-test natijasi nazorat guruhi natijasidan 17,5 foizga yuqori bo'lsa, 2-test natijasiga ko'ra o'sish 0,4 foizni tashkil etdi. Uchinchi test bo'yicha ko'rsatkichlarni taqqoslab ko'rsak, guruhlar orasidagi farq 16,3 foizni, to'rtinchi testda esa guruhlar orasidagi tafovut 12,4 foizni tashkil etganligi aniqladi.

Xulosa qilib aytish joizki, mashg'ulot jarayonida yosh futbolchilarni texnik tayyorlash bo'yicha ishlab chiqilib foydalanilgan mashqlar to'plamlari, pedagogik tajribada o'z samaradorligini ko'rsatdi.

O'yin mashqlaridan tuzilgan va joriy etilgan mashqlar to'plami tajriba guruhida sinovdan muvaffaqiyatli o'tib, o'rganilgan barcha natijalar bo'yicha eng yuqori o'sishni kuzatildi. Bu usullardan yosh futbolchilarni tayyorlashda jarayonida amaliyotida foydalanish mumkin deb hisoblashimiz mumkin.

Адабиётлар рўйхати:

1. *Т.А. Швалева, Ж.В. Кузнецова, А.В. Ермохин.* Техничко-тактическая подготовка юных футболистов на основе игровых заданий. Мир науки, культуры, образования. № 2 (81) 2020 г.

2. Годик М.А., Шамардин А.И., Халиль,И. Командные, групповые и индивидуальные упражнения и их соотношение в тренировке юных футболистов. Теория и практика физической культуры. № 7: 2007 г.
3. А. Э. Саттаров. 12-13 ёшли футболчиларда ўйин машқларини қўллаш асосида тезкор ва ижодкорона фикрлаш қобилиятини шакллантириш. Jismoniy tarbiya va sport axborotnomasi Ilmiy-uslubiy jurnal №1 Нукус-2024 й
4. А. Саттаров, М. Алиев, Т. Ўсмонхўжаев. Х. Сағдиев. Спорт ўйинлари-футбол. Илм-зиё. Тошкент-2012 й.
5. А. Саттаров, И. Вардиашвили. Ёш футболчиларни ўйин вақтида шериклари билан ҳамкорлик қилишни ўйин машқлари орқали шакллантириш. III-Республика илмий-амалий анжуман. Тошкент-2023й,
6. A. Sattarov, F. Asadov. Yoshli futbolchilarning tayyorlash jarayonida mantiqiy fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirishda harakatli va o‘yin mashqlaridan foydalanish. Innovative development in educational activities, jurnali 2023-y.
7. Буравель О. И. Физиологическая характеристика ударно-целевых действий у футболистов: авто-реф. дис. канд. мед. наук. Томск, 2012-г
8. Р.В. Фаттахов. Теоретические основы совершенствовани методики применения игровых упражнений в обучении юных футболистов групповым тактическим действиям в нападении. Педагогико-психологические и медико-биологические проблемы физической культуры и спорта, №2 (19) 2011 г.
9. А. Н. Романенко. О. Н. Джус. М. Е. Догадин. Книга тренера по футболу. Киев- 1988 г
10. Колупанов, П.П. Факторы, определяющие эффективность соревновательной деятельности футболистов в различные возрастные периоды. Теория и практика физической культуры. - N:1.-С. 54. 2010 г.